

MUAMMOLI O'QITISH METODLARINING AMALIY
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

*Matquliyev Jasurbek Davlatnazar o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq ekanligi pedagogika orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Innovatsion uslublar", "Interaktiv metodlar", Aql hujumi (Brainstorming), Rol o'yinlari, Klaster metodi, Muammo asosida o'qitish (Problem-based learning), Debat va munozaralar.

Bugungi ta'lim tizimida darslarni samarali tashkil qilish nafaqat o'qituvchiga balki o'quvchilarga ham bog'liqdir. O'quvchilar faol, harakatchan va kreativ bo'lsalar shu darslar samarali natija beradi. Kreativ fikrlash bu g'oyalar berishdan ham kattaroq narsadir.

Ta'lim jarayonida "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Innovatsion uslublar", "Interaktiv metodlar" kabi atamalarning lug'atimizga kirib kelganligi va ulardan keng foydalanish davr taqozosiga aylanganligi ko'pchilikka sir emas. Biz quyida ta'limning barcha sohalariga kirib kelgan interaktiv metodlar haqida so'z yuritmoqchiman.

Ko'pgina metodik innovatsiyalar ta'limning interaktiv metodlari bilan bog'liq bo'lmoqda.

"Interaktiv" so'zi ingliz tilidagi "Interakt" so'zidan olingan bo'lib, "Inter"-birgalikda, o'zaro, "akt"- harakat ma'nosini bildiradi, ya'ni o'zaro birgalikdagi harakat, faoliyat yoki suhbat, dialog tartibida bo'lishni (masalan, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-kompyuter) ifodalaydi. Interaktiv ta'lim metodi, bu-dialogik ta'lim bo'lib, u o'quvchi va o'qituvchi yoki o'quvchi va kompyuter o'rtaсидаги о'заро биргаликдаги фаолият жаронини ко'зда тутади.

Zamonaviy an'anaviy ta'lim tizimi jiddiy qayta qurishni talab qiladi, chunki zamonaviy sharoitda informatsion va doimiy xarakterini taqqoslaysidi, shaxsiy sharoitda va jamiyatni shakllantiradi, uslubiy, tizimli, ijodiy fikrlash bilan ijodiy shaxsiyat kerak. Bolani ijodkor shaxsga aylantirish pedagogik jarayon texnologiyasiga bog'liq.

Interaktiv o'qitish metodini qo'llash jarayonida o'quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o'zları bilgan, esga tushirgan, o'ylagan ma'lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har

bir o‘quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o‘z hissasini qo‘sadi. Bilimlari, g‘oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko‘rsatish usullari bilan o‘quvchilar o‘zaro fikr, tajriba almashadilar. O‘zaro fikrlashish, tajriba almashish jarayoni samimiy, sidqidildan o‘zaro qo‘llab-quvvatlashdek iliq ruhiy iqlimda bo‘lib o‘tsa, bu holat nafaqat yangi bilim olishni ta’minlaydi, balki bilish faoliyatini oshiradi, faollashtiradi, ularni bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi

Darslardagi interaktiv faoliyat 5 ta asosiy elementlardan tashkil topadi.

- 1.Ijobiy-samimiy o‘zaro bog‘liqlik.
- 2.Guruh ichida shaxsiy mas’uliyatlilik.
- 3.Bir-biriga ta’sir etuvchi o‘zaro faoliyat.
- 4.Hamkorlikda ishslash malakasi.
- 5.Guruhda ishslash.

Tanqidiy pedagogikada Interaktiv metodlarning o‘ziga xosliklari, qulaylik, afzalliklari va uning alohida xususiyatlari quyidagilardir:

- Interaktiv metod bir kishining fikri, chiqishlarini boshqalarnikidan ustun qo‘yishni ta’qiqlaydi.
- Barcha o‘qituvchilardan o‘quvchilarning har birini o‘ziga xos qarashi, fikri, xulosasi borligini hisobga olishni, hurmat qilishni talab etadi.
- Dialogik ta’lim jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni, holatlarni tahlil qilish, ma’lumotlarga tayanish orqali alternativ fikr ustida mulohaza yuritish, o‘ylab xulosa chiqarish, munozaralarda faol qatnashish va boshqalar bilan muloqotga kira olishni o‘rganadilar.
- Shuning uchun darslarda o‘quvchilar bilan yakka tartibda, guruhlarda, juftlikda ishslash, birgalikda izlanish rejasini tuzish, rolli o‘yinlarda, kichik sahna ijrolarida ishtirok etish, ijodiy ishlardan foydalanish kabilar uyushtiriladi.
- Interaktiv metod bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarni ish beruvchilar talabi darajasidagi umumi intellektual rivojlanishini hamda ijtimoiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lgan, har doim faollik ko‘rsatishdek sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida tarbiyalanib, voyaga etishini ta’minlaydi.
- Interaktiv metodning afzalligi, samaradorligi shundaki, darslarda o‘quvchilar nafaqat g‘oyalari, qarashlar va berilgan baholarga o‘z fikrlarini bildiradilar, balki ulkan ma’lumotga ega bo‘lish salohiyatlarini faollashtirish va o‘quv jarayonidagi ijobiy vazifaga taalluqli musobaqada o‘z kuchlaridan to‘la foydalanishni o‘rganadilar.
- Guruhning intellektual kuchi bir o‘quvchining intellektual kuchi miqdoridan doimo yuqori bo‘ladi.

Interaktiv metodlar talabalarning o‘qituvchi bilan bevosita muloqot qilishiga, bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishiga va jamoada ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etib, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida passiv tomoshabinga aylanishdan qochadi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi.

Ular dars jarayonida faol ishtirok etishadi, savol-javoblarda qatnashishadi va o‘z fikrlarini bildirishadi.

Interaktiv metodlar talabalarni passiv tinglovchi emas, balki darsning faol ishtirokchisi bo‘lishadi.

- Aql hujumi (Brainstorming): Talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishadi va guruh bo‘libmuammoni hal qilish yo‘llarini izlashadi.

- Rol o‘yinlari: Tarbiyachilar bolalar roliga kirib, turli tarbiyaviy vaziyatlarni jonlantiradilar.

- Klaster metodi: Bir mavzuga oid asosiy tushunchalarni vizual tarzda klaster ko‘rinishida ifodalash orqali mavzuni chuqur o‘rganish.

- Muammo asosida o‘qitish (Problem-based learning): Talabalar real hayotiy muammolarnihal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

- Debat va munozaralar: Talabalar turli mavzular bo‘yicha bahslashib, o‘z fikrlarini asoslashni o‘rganadilar.

Interaktiv o‘qitish metodi o‘qituvchiga:

- dars mavzusiga o‘quvchilarni qiziqtirish;
- o‘quv materialini birmuncha mustahkam o‘zlashtirilishiga erishish;
- analitik fikrlashni rivojlantirish;
- aloqa o‘rnatish, muloqotga kiritish malakasini shakllantirish;
- barcha o‘quvchilarni o‘quv faoliyatida faol qatnashishlari uchun sharoit yaratish;
- o‘quv guruhida yoqimli, hammaga ma’qul ruhiy iqlim yaratish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash va g‘oya, tajribalar xilma-xilligini o‘rganish pedagoglar tomonidan tushunilgan va qadrlangandagina amalga oshiriladi. Tanqidiy fikrlash “yagona to‘g‘ri javob” mentalitetini qabul qilish jarayonida yuzaga kelmaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Muayyan yoshda bajarilib, unutilib ketadigan vazifa emas. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash uchun mukammal yo‘l yo‘q.

Ammo tanqidiy fikrlovchilar uchun uning shakllanishiga yordam beradigan bir qator o‘ziga xos ta’lim shartlari mavjud:

- tanqidiy fikrlash tajribasini egallash uchun vaqt va imkoniyat berish;
- o‘quvchi va yoshlarga fikr yuritish imkoniyatini berish;
- turli g‘oyalar va fikrlarni qabul qilish;
- ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini ta’minalash;
- o‘quvchilarni kulmaslikka ishontirish kerak;
- har bir o‘quvchi-yoshning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ishonch hissini

shakllantirish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash kerak.

Interaktiv metodlar o‘quv faoliyatida quyidagi jarayonlarni amalga oshiradi :

- Mu staqil fikrlashni rivojlantirish;

• Interaktiv metodlar orqali talabalar o‘z fikrlarini mustaqil shakllantirishga o‘rganishadi;

• Masalalar yechimi ustida ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;

• Muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish:Guruh bo‘lib ishlash, muhokama qilish va babs-munozaralar o‘tkazish o‘quvchilarning muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlaniradi.O‘quvchilar tinglash, fikr bildirish, savol berish va konstruktiv bahslashishni o‘rganishadi.;

- Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlanirish;

• Ko‘plab interaktiv metodlar guruh bo‘lib ishlashni talab qiladi (rol o‘yinlari, aql hujumi, munozaralar va h.k.).Bu esa o‘quvchilarga jamoada ishlash, hamkorlik qilish va vazifalarni taqsimlashni o‘rgatadi;

• Qiziqish va motivatsiyani oshirish:An’anaviy darslarga nisbatan interaktiv darslar o‘quvchilarga ko‘proq qiziqarli bo‘ladi.Talabalar dars jarayoniga qiziqish bilan yondashib, o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishadi;

• Ijodiy fikrlashni rivojlanirish:Interaktiv metodlar talabalarni yangi g‘oyalar topishga undaydi.Masalan, “aql hujumi” yoki ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining kreativ yondashuvlarini namoyon etishadi;

• Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini oshirish:Interaktiv metodlar o‘quvchilarga real hayotga oid muammolarni ko‘rib chiqish va ularni hal qilish imkonini beradi.Bu jarayon orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni egallab, o‘rganilgan bilimlarini hayotda qo‘llashni o‘rganishadi;

• Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash: Dars oxirida o‘tkaziladigan tahlillar orqali talabalar o‘zlarining faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.Bu jarayon o‘z-o‘zini tahlil qilish;

- xatolarini aniqlash va kelajakda ularni tuzatishga yordam beradi;

• Tarbiyaviy ahamiyat:Interaktiv metodlar nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.O‘quvchilar o‘zaro hurmat, hamkorlik va mas’uliyatni his qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar;

• Shaxsiy yondashuvni ta’minalash:Har bir o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va bilim darajasiga qarab moslashtirish imkonini beradi.Talabalar o‘z qobiliyatlariga mos topshiriqlarni bajarish orqali maksimal natijalarga erishadilar.

Pedagogik jarayonlarda interaktiv metodlarni qo‘llash hozirgi zamонавиу та’limning muhim talablardan biri hisoblanadi. Bu metodlar an’anaviy ta’lim yondashuvlariga nisbatan ko‘proq o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil

fikrlashni rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bo‘lajak pedagoglar uchun interaktiv metodlarni o‘rganish va ulardan foydalanish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Interaktiv metodlar o‘quvchilarning bilish jarayoniga faol ishtirok etishlarini ta’minlaydi, ularni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqot qilishga o‘rgatadi. Bu jarayon bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyatini oshiradi va ularni pedagogik faoliyatga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, interaktiv metodlar orqali tarbiyachilar kommunikativ, refleksiv, tashkiliy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interaktiv metodlardan samarali foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu nasr farobiy —Fozil odamlar shaxril tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 320 b.
2. A.Hayitov, S.Azizova Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari -bugungi kun yoshlарining ma’naviyat maktabi sifatida
3. D.R.Garrison, H.Kanuka; Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education, The Internet and Higher Education, Volume 7, Issue 2, 2nd Quarter 2004, Pages 95-
4. Azizzodjaeva N.N. O‘qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi – T., 2000.
5. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003 y.
- 6.Ishmuhamedov R.,va boshq.Ta’limda innovatsion T: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009y.
7. N.B. Nuraliyeva, Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. International Journal of Social Science Research and Review. Volume 5, Issue 5, May, 2022, Pages: 259-264.
8. N Nuraliyeva. Darslarda o‘quvchilarning kretiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish Science and innovation 1 (B8), 1423-1426.
9. I. Iskandarov “Ta’lim jarayonida interaktiv metodlarning ahamiyati” Journal of new century innovations Volume 20, Issue 4, January, 2023, Pages: 61-64.
10. G. Jo‘ldasova “Talabalarda tanqidiy fikrlashning pedagogik asoslari”, Uzluksiz bilimlendirew sistemasinda araliktin o‘qitiwdim integrasiyasi nomli IV xalqaro konferensiya materiallar to‘plami. 262-264 bet.
11. F. Xalilova “Pedagogik jarayonlarda interaktiv metodlarni qo’llash va uning bo‘lajak tarbiyachilarga ta’siri” JOURNAL OF IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI – volume 14, issue 02, 2025, Pages:956-959.
12. M.Abdullayeva “Interaktiv metodlar orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish” Экономика и социум №12(91)-1 2021, Pages:38-41.
13. Sh. Ismoiljonov “Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va uning ahamiyati” “YANGI O’ZBEKISTONNING UMIDLI YOSHLARI” 3(1)-SON, 87-95-bet.